

FRANKLAR DAVLATIDA IMPERIYA MEROSIYILIGI MASALASI

Aliyev Asqar

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Yevropada 476-yilda Gʻarbiy Rim imperiyasining qulashidan uch asrdan ziyodroq vaqt oʻtib yangi – Karolinglar imperiyasi tashkil topadi. Maqolada oraliqdagi katta tanaffuzning imperiyani eʼlon qilinishiga taʼsiri, unda merosiylilik masalasi va oʻz davri uchun qanday qabul qilinganligi ilmiy tahlillar asosida ochib berilishga harakat qilingan.

Kalit soʻzlar: Rim, imperiya, papa, toj, imperator.

Buyuk Karlga 800-yilda Rimdagi Avliyo Pyotr cherkovida Rim papasi Lev III tomonidan imperatorlik toji kiydirildi. Shundan boshlab Rim shahrining himoyachisi sifatida qaralgan franklar qiroli “imperator va avgust” nomini oldi.

Aynan ana shu voqelik medievistikada juda katta bahs va munozaralarga sabab boʻlgan. Rasman 476-yilda soʻnggi Gʻarbiy Rim imperatori taxtdan tushirilib, imperatorlik ramzlari (insignilar) Sharqiy Rim imperatori Zenonga yuborilishi bilan amalda Gʻarbda, Yevropada imperatorlik instituti butunlay tugagan edi. Yevropada bir vaqtlar qudratli boʻlgan Rim imperiyasi Buyuk Karl davriga tarixga aylangan, uning ulugʻvorligidan hech narsa qolmagan edi. Buyuk Karl hayoti boʻyicha asar yozgan Eyngardning maʼlumot berishicha, Avliyo Pyotr cherkovi mehrobiga taʼzim qilayotgan Buyuk Karlga ortidan Rim papasi kelib, kutilmaganda uning boshiga imperatorlik tojini kiydirgan. Bundan Karl hayron boʻlgan. Har holda voqealarni shunday talqin etish orqali Eyngard oʻquvchini goʻyoki Karl Buyuk Italiyaligi paytida imperatorlik tojini kiyishni

hayoliga keltirmaganligiga ishon tirishga harakat qiladi. Boshqa tomondan, Karlning monarx sifatidagi mavqeyini oshirish haqida bir muncha vaqt oldin muhokama bo‘lganligiga shubha qilish uchun hech qanday sabab yo‘q, chunki Konstantinopoldagi imperator hokimiyatining zaifligi va karolinglarning tan olingan buyukligi yordam berdi. Rimda toj kiydirish marosimining o‘tkazilganligi Konstantinopolni ranjitdi, chunki Vizantiya Rim imperiyasining vorisi deb o‘zini hisoblab, Rimning qonuniy himoyachisi deb bilardi. Lekin bu paytda Vizantiyada hukmronlik qilayotgan Irina va uning boshqa ko‘plab o‘tmishdoshlari Rimga himoya taqdim etish uchun ojizlik qilardi.

G‘arbda bo‘lsa Imperiyasi haqida fikr hech qachon o‘lmagan va hech kim imperiya amalda mavjud emasligini tan olishni istamagan. Rim imperiyasi hududini egallab olgan german (varvar) qirollari o‘zlarini imperator darajasida e‘lon qilishga urinib ham ko‘rmagan va o‘zlarini Rimning konsuli va patritsiylari deb hisoblashgan. Chunki ular o‘sha davrda Imperiyaning qulaganini ham payqamagan, ular imperiya parchalanib ketdi va uning barcha qismi bitta shaxs hokimiyati ostiga birlashib, Rim imperatori titulini olishi o‘tish bosqichi bo‘lib, butun tarixining ajralmas xotimasi bo‘ladi deb hisoblashgan.

Shunga ko‘ra, birinchi navbatda Vizantiyada sodir bo‘lgan voqealiklar, ya’ni u yerda imperatorlik titulining ayolga (Irinaga) o‘tishini bir tomondan G‘arbda Rim imperatori titulining restavratsiya qilinishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatgan deb qaraladi. Bu talqin o‘sha vaqtlarda franklar tomonidan ilgari surilganligini ta’kidlash o‘rinli. Lekin bu fikrga to‘la qo‘shilib bo‘lmaydi. Rim imperatori titulini olgan Karl Buyuk oldida ikkiga parchalanib ketgan imperiyani tiklash rejasi paydo bo‘lganligi haqidagi fikrlarni shu o‘rinda inobatga olish kerak. Bu imperatrissa Irina nomi bilan bog‘liq edi. Murakkab diplomatik aloqalar orqali Yustinian davrida ham erishilmagan maqsadga franklar hukmdori yaqin keladi. U imperator titulini olgandan keyin titul jihatidan Vizantiyaga imperatoriga

tenglashib oldi. Irinaga uylanish loyihasini amalga oshirish orqali Sharq va G‘arbni bitta davlat ostida birlashtirish rejasini amalga oshirmoqchi bo‘lgan. Shunday bo‘lgan taqdirda Rim imperiyasi o‘zining oldingi ulug‘vorligi davridagi holatida qayta tiklanar edi. Lekin Vizantiyadagi saroy to‘ntaruvi bu rejani amalga oshirish imkonini bermadi.

O‘z o‘zidan ravshanki, – deb ko‘rsatadi A.A.Spasskiy o‘zining “Buyuk Karl monarxiyasi va uning parchalanish jarayoni” deb nomlangan ma’ruzasida, – Imperiyaning qayta tiklanishi ulkan illyuziyalardan biri edi. Rim imperiyasi to‘lig‘icha yer yuzidan yo‘qolgan edi va Karl monarxiyasi uning o‘rnini almashtirolmagan. O‘zini Rim imperatori deb e’lon qilgan Karl shunday holatda, ya’ni varvar frank qiroli sifatida qolishda davom etgan. Shunga qaramasdan bu illyuziya G‘arbning keyingi cherkov va siyosiy tarixida katta ahamiyat kasb etgan. Imperiyaning qayta tiklanishi g‘oyasi g‘arbiy-xristian dunyosining siyosiy birligi g‘oyasi bilan bog‘landi”.

Ma’lumki, “imperiya” tushunchasi Rimdan meros qolgan. Lotinchada “hokimiyat” mazmunini beruvchi imperiya tushunchasi “imperator boshchiligidagi yirik monarxiya davlatiga nisbatan ishlatilib, qoida tariqasida, u bir nechta nisbatan avtonom bo‘ysunuvchi hududlarni birlashtirgan, ko‘pincha etnik tarkibi turlicha bo‘lgan holatda namoyon bo‘ladi. Lekin imperiyaning qoidasidan kelib chiqib Qadimgi dunyodagi ba’zi davlatlar (Yangi Ossuriya, Fors, Makedoniya, Xitoy kabi) ham o‘z davri uchun imperiya darajasida bo‘lganligi sababli tarixchilar tomonidan ularning nomiga qo‘shib aytish qo‘llanilgan. Bu davlatlar oddiy monarxiya davlatidan ko‘ra kattaroq hududlarni qamrab olib, qudrat jihatidan bir qancha elatlar va xalqlarni, kichik-kichik davlatlarni bitta hokimiyat ostiga birlashtirgan edi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda o‘z davri uchun Buyuk Karlning davlati ham imperiya darajasiga yetgan edi deb hisoblash mumkin. Sababi Yevropaning katta qismini garchi to‘la

ma'noda markazlashmagan bo'lsa ham (binobarin Rim imperiyasidan farqli ravishda yuqorida nomlarini sanab o'tgan qadimgi dunyoning imperiyalari deb ataluvchi davlatlari ham markazlashmagan edi), ammo qudrat jihatidan qit'ada unga teng keladigan davlat qolmagan edi va bitta davlat hokimiyati ostiga bir necha o'nlab xalqlar bo'ysindirildi. Ushbu jihatlardan kelib chiqqan holda, bizningcha Buyuk Karl 800-yilda Rim imperatori titulini olmaganda ham, ko'p ehtimol bilan medievist tarixchilar Buyuk Karl davlatini imperiya tarzida e'tirof etishgan bo'lardi.

Ikkinchi tomondan, Buyuk Karlning imperatorlik tojini kiyishi tarixiy izchillikning qonuniy yakuni bo'ldi. Bir necha asrlar davomida deyarli ta'sir ko'rsatish darajasida bo'lib kelmagan g'arbiy xristian cherkovi boshida turuvchi Rim papalari birinchi marta tom ma'noda franklarning keyinchalik tarixchilar tomonidan Buyuk Karl nomi bilan ataluvchi karolinglar sulolasi boshqaruv davriga kelib nisbatan mustahkam va qudratli ko'rinishni ola boshladi. Bu birinchi navbatda karolinglar sulolasining xizmati bilan bevosita bog'liq edi. Bunda 756-yilda Rim papaligi dunyoning davlatining paydo bo'lishini eslashning o'z yetarli bo'ladi.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, o'z davri uchun eng savodli muassasa hisoblanuvchi xristian cherkovi qanday bo'lmasin o'z qudratini saqlab qolish, shu bilan birga dunyoviy hokimiyatdan ustunligini ko'rsatish uchun to'xtovsiz ravishda turli chora-tadbirlarni ko'rib kelgan. Bunda birgina “Konstantin tuhfası” deb ataluvchi uydurmaning o'ylab topilishi yetarli bo'ladi. Qirol sifatida e'lon qilish tartibini o'zining vakolat doirasiga olgan Rim papasi Karlning ko'rsatgan yordamini qaysidir yo'l bilan mukofotlash va ayni paytda o'z davrining eng qudratli hukmdori bo'lgan Karlni cherkovning umrbod himoyachisiga aylantirish hamda imkon qadar dunyoviy hokimiyat diniy hokimiyatdan ustun emasligini, unga xizmat qilish kerakligini ko'rsatish va bunga erishish maqsadida uning

boshiga imperatorlik tojini kiydirgan bo‘lishi ehtimoldan holi emas (tarixiy manbalarda bu jarayonda Buyuk Karl tizzalab turganligi yozib qoldirilgan, bu holat go‘yoki Rim papasi oldida tiz cho‘kkan holda imperatorlik tojini qabul qilib olgan mazmunini beradi). Imperator sifatida toj kiygandan boshlab Buyuk Karl cherkov himoyachisiga va Papaning rahnamosiga aylangan edi deb hisobalanadi. Bunday fikrga kelishimizga asosiy asos shundaki, Rim papalari paydo bo‘lgandan boshlab qirol tojini kiydirish diniy marosim asosida takomillashgan holatga aylantirilgan. Aslini olganda Yevropa xristian madaniyatida toj kiydirish – bu hukmronlikka moy surtish marosimi sifatida talqin etiluvchi diniy marosim hisoblanadi (Eski Ahddan kelib chiqqan). Shunga ko‘ra, marosimda Xudoning saltanatga marhamati, davlat bilan ilohiy bog‘liqligi va hokazolar kabi mazmunni kasb etgan. V asrdan boshlab xristian cherkovi monarxning boshiga toj kiydirish ishi odatda eng yuqori cherkov ierarxi tomonidan amalga oshirilgan (lekin ko‘plab monarxlar – deyarli barcha rus hukmdorlar, Napoleon I, ba’zi ingliz hukmdorlar ierarxdan tojni olib, o‘zlariga kiyishgan), lekin bu davrda Yevropada qudratli podsholiklar shakllanmagan va xristian dini ham katta ta’sir kuchiga ega emas edi.

Shuning uchun bo‘lsa kerak antik dunyodagi Rim imperiyasining “imperiya” tushunchasidan o‘rta asrlarning “imperiya” tushunchasi bir-biridan mutlaqo farq qiladigan holatga kelgan. Ya’ni o‘rta asrlarga kelganda yagona cherkov xristian kontseptsiyasi bilan to‘ldirilgan "butun dunyo" Rim imperiyasining modeli o‘rta asrlardagi imperiya kontseptsiyasining asosini tashkil etadigan bo‘ldi. Bunda imperiya butun xristian olamini yagona monarx boshqaruvi ostida birlashtirganligi va uning boshida turuvchi monarx asosiy vazifasi cherkovni himoya qilish ekanligi nazarda tutilgan. Feodal jamiyati sharoitida imperiya tushunchasi markazlashuvni va byurokratik tizimni nazarda tutmagan va tutolmas ham edi. O‘rta asrlardagi Yevropa imperiyalari – Franklar

va Muqaddas Rim – markazlashmagan tuzilmalar bo‘lib qoldi, ularning birligi imperator hokimiyatining muqaddasligi bilan qo‘llab-quvvatlangan xolos.

Shu voqealar haqiqatda davlat sarhadlaridan tashqarida imperator hokimiyati paydo bo‘lganligi e’tirof etilganligiga biroz bo‘lsada tasdiq vazifasini o‘taydi. Ammo to‘lig‘icha shunday bo‘lgan deb hisoblash qiyin. Chunki o‘z davri uchun qudratli bo‘lgan Buyuk Karl bilan xoh u imperator titulida bo‘lsin, yoki qirol titulida bo‘lsin nisbatan kuchsizroq davlat monarxleri hisoblashishga majbur bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Империя// <https://ru.wikipedia.org/wiki>
2. Ковальский Ян Веруш. Папы и папство. Пер с польского Т.Трифоновой. – М., 1991. – С.78.
3. Коронация // Материал из Википедии. <https://ru.wikipedia.org/wiki>
4. Лев III (папа римский) <https://ru.wikipedia.org/wiki>
5. Левандовский А.П. Франкская империя Карла Великого. “Евросоюз” Средневековья. – М.: “Алгоритм”, 2013.
6. Легеев М.В., Никольский Е.В. Коронация христианских монархов: исторический и сакраментологический аспекты. // Studia Humanitatis. 2016. № 3. С.3.
7. Мюссо-Гулар Рене. Карл Великий / Пер. с франц. М: “Весь мир”, 2003.
8. Спасский А.А. Лекция по истории западно-европейского Средневековья. 2-е изд., испр. – СПб.: “Издательство Олега Абышко”, 2009.
9. Эйпхард. Жизнь Карла Великого. Вступительная статья, перевод, примечания, указатели М.С. Петровой. – М.: Институт философии, теологии и истории св. Фомы, 2005.